


QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)


Qoraqalpog`iston Respublika bo`yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 772,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,9 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 424,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 39,4 %), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 3 347,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 239,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 %ga kamaygan) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**



2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Nukus shahri, Beruniy, Qo`ng`iroq va To`rtkul tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (30,6 foiz), Beruniy (9,8 foiz), To'rktkul (9,2 foiz), Xujayli (8,8 foiz) va Amudaryo (6,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,4 %ga o'sdi va 424,9 mld. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,3 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 3 347,9 mld. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,8 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,7 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

**2017 yil
yanvar-noyabr**




**2018 yil
yanvar- noyabr**



█ Yirik korxonalar
█ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



2018 yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2037,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (3701,1 ming so'm), Qorao'zak (2940,0 ming so'm) va Xujayli (2762,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to`g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Muynoq (848,0 ming so'm), Kegayli (1240,2 ming so'm) va Amudaryo (1333,2 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2037,5	104,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1333,2	101,7
Beruniy	2003,2	104,2
Qonlikul	1415,1	101,7
Qorao'zak	2940,0	100,7
Kegayli	1240,2	100,2
Qo`ng`irot	1683,6	104,8
Muynoq	848,0	100,2
Nukus tumani	1399,2	101,6

Taxiatush	1430,4	102,9
Taxtako`pir	2675,5	100,6
To`rtkul	1663,1	103,7
Xujayli	2762,5	102,0
Chimboy	1361,2	103,1
Shumanay	1691,8	101,3
Ellikqal`a	1360,8	99,5
Nukus shahri	3701,1	109,7

Jumladan, 2018 yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 %ni tashkil etib, 117,5 mlrd. so`mga etdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,6 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:71-230-82-06